

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMANOVA DILFUZA UCHKUNOVNA

**TALABALAR INTELLEKTUAL FAOLIYATINI
OPTIMALLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06-Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on the
psychological sciences**

Raxmanova Dilfuza Uchkunovna

Talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari...3

Рахманова Дильфуза Учкуновна

Психологические детерминанты оптимизации интеллектуальной деятельности
учащихся.....25

Rakhmanova Dilfuza Uchkunovna

Psychological determinants of optimizing students' intellectual performance.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMANOVA DILFUZA UCHKUNOVNA

**TALABALAR INTELLEKTUAL FAOLIYATINI
OPTIMALLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06-Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/P947 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayeva Sayyora Rustamovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Usmonov Sherzod Axmadjanovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ kuni soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu.kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universitetining Axborot- resurs markazida tanishish mumkin (___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100185, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____dagi raqamli reestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda shaxs intellektual faoliyati optimallashtirish, inson kasbiy-hayotiy sifatini yuksaltirish masalalari tobora dolzarb ahamiyatli bo‘lib bormoqda. Amerikaning Arizona universitetida «Center for the Study of Higher Education» Oliy ta’limni o‘rganish markazi¹ tomonidan talabalarning oliy ta’limdagi muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillar, motivatsiya va o‘z-o‘zini samaradorligi ta’minlovchi intellektual qobiliyatlarni tadqiq qilmoqda, Amerika Psixologlar Assosiatitsiyasi (APA)² inson shaxsi, uning intellektual faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o‘rganish ustuvorlik kasb etadi. Bu borada «The Center for Research on Education and Educational Technology (CREET)³, Open University, Great Britain» ta’lim texnologiyalari bo‘yicha tadqiqot markazi - texnologiyaning o‘quv jarayoniga ta’sirini, jumladan, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol va raqamli vositalarning rolini o‘rganadi. Shaxsning intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlarining ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Jahon oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxsni intellektual faoliyatni optimallashtirishning obyektiv va subyektiv determinantlarini o‘rganish, shaxsning rivojlanish erishishi bosqichlari, manbalari, asoslari, omillari korrelyatsiyasini ilmiy tahlil qilish asosida ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish muammolariga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada shaxs intellektual faoliyatni optimallashtirish muammosining asosiy masalasi etib – intellektual faoliyatning turlari, ko‘rsatkichlari hamda mezonlarini aniqlash, shaxs intellektual faoliyatni optimallashtirishni tashxis qilishning turli xil uslubiy vositalarini taklif etish, shaxsning ta’lim-tarbiya olishi, kasb egallashi, shaxsning kasbiy rivojlantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish va shaxsning intellektual faoliyati va unga ta’sir etuvchi omillar va munosabatlarining o‘ziga xos muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik masalalariga katta ahamiyat berilib, zarur huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi: «...jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish...»⁴ vazifalari belgilanganligi talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlarini aniqlash orqali mazkur muammoni ilmiy o‘rganishda yetarli asos bo‘la oladi. Bu borada shaxs intellektual faoliyatini optimallashtirish, muammolarni hal qilish, innovatsion g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish

¹ <https://coe.arizona.edu/hed> University of Arizona.

² <https://www.apa.org/> American Psychological Association

³ The Center for Research on Education and Educational Technology

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi PF–60-sonli Farmoni.

va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmonlari, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son «Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 12-yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan O.U.Avlayev, M.G.Davletshin, M.F.Hakimova, V.M.Karimova, X.M.Kdirbaeva, Z.T.Nishanova, B.R.Qodirov, O.X.Rajabov, N.S.Safoyev, Sh.M.Sodiqova, R.I.Sunnatova, Sh.J.Usmonova, Sh.A. Usmonov, E.G'. G'oziev va boshqalar tomonidan talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirish, shaxsni intellekt va tafakkur taraqqiyotini rivojlantirishning psixologik masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Lekin intellektual faoliyatni optimallashtirishning psixologik determinantlari alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan B.G.Ananev, N.S. Artemeva, N.P.Blonskiy, D.N.Bogoyavlenskiy, A.A.Brushlinskiy, E.A.Golubeva, P.Y.Galperin, S.F.Juykov, Z.I.Kalmikova, V.A.Kruteskiy, Y.N.Kaanova-Meller, A.N.Leontev, T.I. Leytes, N.S.Leytis, A.M.Matyushkin, V.N.Myasishchev, Y.A.Ponomaryov, S.L.Rubinshteyn, N.F.Talizina, B.M.Teplov,

O.K.Tixomirov, L.S.Vigotskiy, L.V. Zankov va boshqalar shaxs intellektual rivojlanishga alohida e'tibor berishgan, intellekt muammosini asosan kompetensiya, shuningdek, intellektning tuzilma va funksiyalari yo'nalishida ilmiy tadqiq etishgan. Lekin shaxs intellektual faoliyatini optimallashtirishning maxsus psixologik determinantlar bilan bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tilmagan.

Xorijiy psixolog olimlardan G.Ayzenk, B.Bass, J. Boyd, R.E.Boadzis, K. Dunker, J.Gilford, D. Goleman, J. Kempion, K. Levin, F.Moss, J. Nutten, L.Terstoun, D.Veksler, F.Zimbardo, N.N.Tolstix, M.Vertgeymer, U.Charlzvort, J.Piaje tomonidan shaxs intellektual faoliyatining tarkib topishi hamda shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalar intellektual faoliyatni optimallashtirishning psixologik determinantlari aniqlash asosida ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirish uchun ularni turli intellekt turlarini (umumiy, vizual, analogiya, amaliy) integrativ namoyon bo'lishining psixologik determinatlarini aniqlash;

talabalarning umumiy intellekti va boshqa intellekt turlari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash;

talabalarning individual xususiyatlari omillar integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib, intellektual faoliyatini optimallashtirishni shartlovchi ichki psixologik determinantlarini asoslash;

turli ta'lim usullari va intellektual o'yin texnologiyalarini integrativ qo'llash asosida talabalar intellektini rivojlantiruvchi ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Chirchiq davlat pedagogika universitetining 318 nafar (174 nafar erkak, 144 nafar ayol) pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalari, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali 72 nafar (12 nafar erkak, 60 nafar ayol), O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 85 nafar (20 nafar erkak, 65 nafar ayol) jami 475 nafar talabalar respondentlar sifatida tadqiqotda ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti talabalarning intellektual faoliyatni optimallashtirishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, shaxs intellektini baholash bo'yicha J.Ravenning «Progressiv matrisalar» testi, amaliy, vizual intellektlarni aniqlash metodlari, V.M.Rusalovning «Individuallikning formal-dinamik xususiyatlari so'rovnomasi», A.N.Obozovning

«Intellektual faoliyatni aniqlash» so'rovnomasi, Tromso «Ijtimoiy intellekt» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni hamda K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

intellektual faoliyatini optimallashtirish uchun talabalarning bilish jarayonini subektiv amalga oshirish qobiliyati va unga tayyorgarligida umumiy, vizual, analogiya hamda amaliy intellektlar integrativ namoyon bo'lishining psixologik determinatlari dalillangan;

talabalarning umumiy intellekti, vizual intellekti, analogiya intellekti, sotsial intellekt komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra psixomotor faol bo'lgan talabalarda intellektning intensiv namoyon bo'lishi tufayli intellektual faoliyatini optimallashtirish ustuvor harakterga ega ekanligi asoslangan;

talabalarning individual xususiyatlarida «kognitiv-psixomotor faollik», «intellektual faoliyatda emotsionallik», «kommunikativ plastiklik», «ijtimoiy kognitiv moslashuvchanlik», «motivatsiyasi va rivojlanishi», «emotsional-ijtimoiy xabardorlik», «intellektual barqarorlik», «analitik fikrlash» kabi omillar integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib, intellektual faoliyatini optimallashtirishni shartlovchi ichki psixologik determinantlari ekanligi dalillangan;

talabalarda intellektini rivojlantirish modeli shaxsda vizualizasiyalash, o'qitish usullari, intellektual faoliyatga nisbatan ichki motivatsiya negizida namoyon bo'lishi tufayli, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, didaktik va mobil ilovalardagi intellektual o'yin texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli ta'lim yo'nalishi talabalarida intellektual faoliyatini optimallashtiruvchi yetakchilik psixologik determinant sifatlar tavsiflangan;

intellektual faoliyatni optimallashtirishning bosqichlari, dinamikasi, jinsiy xususiyatlarini inobatga oluvchi maxsus korreksion trening dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga kiritilgan;

tadqiqot natijalari o'qituvchilar, psixologlar va talabalar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislar uchun kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Shaxs intellektual faoliyatni optimallashtirishning psixologik determinantning metodologik tamoyillari asoslanganligi; tanlanmaning ko'lami va reprezentativligi; matematik statistika metodlarining qo'llanganligi, sifat tahlili va ma'lumotlarning kompyuterda qayta ishlanganligi, empirik ma'lumotlarning ko'p bosqichli qayta ishlanishi va interpretatsiyasi, ularning statistik ahamiyatliligi va boshqa tadqiqotlar ma'lumotlari bilan taqqoslanganligi va ma'lumotlarni statistik qayta ishlash IBM SPSS 22.0 dasturlari yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intellektual salohiyatli talabalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berishga ilmiy jihatdan yondashilgani, ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi psixokonsultatsiya va psixokorreksiya texnik ishlarni ishlab chiqish imkoniyatini berishi bilan belgilanadi

hamda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishining mohiyati va tushunchasi ochib berilgani, uning shakllanishi va rivojlanishining hozirgi kundagi holati to'g'risidagi nazariy tasavvurlar, shuningdek, keltirilgan xulosalar ushbu hodisani o'rganishning keyingi izlanishlari doirasida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotdan olingan natijalarning ijtimoiy-amaliy faoliyatining turli sohalarida, oliy ta'lim muassasalari psixologlari, yoshlar bilan ishlaydigan mutaxassislar tomonidan qo'llanish imkoniyati bilan belgilanib, tadqiqot natijalaridan psixolog kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida nazariy-amaliy material sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari tadqiq etish natijalari asosida:

talabalarning intellektual faoliyatini optimallashtirishda umumiy, vizual, analogiya hamda amaliy intellektlar integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib gender va yoshga oid psixologik determinatlari mavjudligi dalillangan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-350 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» va «Differensial psixologiya» modullariga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM №350 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda intellektual faoliyatini optimallashtirishning gender va yoshga oid xususiyatini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

talabalarning umumiy intellekti, vizual intellekti, analogiya intellekti, sotsial intellekt komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra psixomotor faol bo'lgan talabalarda intellektning intensiv namoyon bo'lishi tufayli intellektual faoliyatini optimallashtirish ustuvor harakterga ega ekanligi asoslangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-350 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» va «Differensial psixologiya» modullariga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM №350 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda intellektning intensiv namoyon bo'lishi tufayli intellektual faoliyatini optimallashtirish komponenti ochib berilgan;

talabalarning individual xususiyatlarida «kognitiv-psixomotor faollik», «intellektual faoliyatda emotsionallik», «kommunikativ plastiklik», «ijtimoiy kognitiv moslashuvchanlik», «motivatsiyasi va rivojlanishi» «emotsional-ijtimoiy xabardorlik», «intellektual barqarorlik», «analitik fikrlash» kabi omillar integrativ namoyon bo'lishiga asoslanib, intellektual faoliyatini optimallashtirishni shartlovchi ichki psixologik determinantlariga ustuvorlik berish muhimligi dalillangan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-350 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» va «Differensial psixologiya» modullariga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM №350 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabada intellektini rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar va ularning xususiyatlari aniqlashtirilgan;

talabalarda intellektini rivojlantirish modeli shaxsda vizualizasiyalash, o'qitish usullari, intellektual faoliyatga nisbatan ichki motivasiya negizida namoyon bo'lishi tufayli, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, didaktik va mobil ilovalardagi intellektual o'yin texnologiyalarini integrativ qo'llash mexanizmlari asosida takomillashtirilgan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2025-yil 19-maydagi PM-350 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi» va «Differensial psixologiya» modullariga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM №350 a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda intellektual faoliyatini optimallashtirishga mo'ljallangan psixologik o'quv-treninglar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprabatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari O'zR OAK tomonidan tavsiya etilgan 6 ta jurnalda (shulardan 2 tasi xorij jurnalida) chop etilgan. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va xorij konferensiya materiallari to'plamida o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, 9 ta paragraf, bob bo'yicha xulosalar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan; dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan aloqadorligi bayon qilingan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek ob'ekti, predmeti va usullari ta'riflangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalar, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Intellektual faoliyat muammosining nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi psixologiya fanida intellektual faoliyati muammosini, shaxsning intellektual faoliyati muammosini tadqiq qilish genezisi va shaxsning intellektual faoliyati -tadqiqot predmeti sifatida o'rganish hamda talaba intellektual faoliyatining optimallashtirishning psixologik mexanizmlari va funktsiyalari haqida so'z boradi.

O'zbek psixolog-pedagog olimlarining ilmiy tadqiqotlarida mazkur muammoni ayrim aspektlari o'rganilgan. Professor V.Karimova rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda sotsial intellekt va ijtimoiy tasavvurlar uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan, Sh. Usmanova (2011 y) talaba kasbiy shakllanishida intellekt dinamikasi bo'yicha tadqiqotlarida talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri - intellektni jadal sur'atlar bilan ro'yobga chiqishidir. Shuningdek, intellekt omillarini ilmiy mushohadalari talqin qilinadi.

Shaxs faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishi sotsial intellekt omillariga bog‘liqligi bo‘yicha tadqiqot ishlari (D.Sobirova, 2017-2022); o‘quvchilarda sotsial intellekt shaxslararo muammolarni hal etish, ijtimoiy xulq-avtor strategiyalarini tanlash, ularning ijtimoiy muammolarini hal etishda qo‘llay olish bilan aloqadorlikda namoyon bo‘lishini, bunda o‘quvchi shaxsining o‘zini-o‘zi baholay olishi, emotsiya va ichki ustanovkalari asosiy rol o‘ynashini asoslab berdi (X.M.Kdirbaeva, 2021); sotsial intellekt shaxs kamolotini ta‘minlashining psixologik determinanti ekanligi isbotlagan (O.U.Avlayev 2024), mazkur muammoni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan Ananev B.G., Artemeva N.S., Blonskiy N.P., Bogoyavlenskiy D.N., Brushlinskiy A.A., Golubeva E.A., Galperin P.Y., Juykov S.F., Kalmikova Z.I., Kruteskiy V.A., Kaanova-Meller Y.N., Leontev A.N., T.I. Leytes, Leytis N.S., Matyushkin A.M., Myasishchev V.N., Ponomaryov Y.A., Rubinshteyn S.L., Talizina N.F., Teplov B.M., O.K.Tixomirov, Vigotskiy L.S., Zankov L.V. va boshqalar shaxs intellektual rivojlanishga alohida e‘tibor berishgan, intellekt muammosini asosan kompetensiya, shuningdek, intellektning tuzilma va funksiyalari yo‘nalishida ilmiy tadqiq etishgan.

Intellektual faoliyat muammolarining ayrim jihatlari ochib berilgan. Jumladan, shaxsni intellektni tadqiq etishdagi o‘ziga xos yondashuvlar, psixologik metod, metodika, tamoyillar, psixofiziologik mexanizmlar, o‘tmishdagi va zamonaviy paradigmalarda batafsil tahlil qilingan. Albrecht K. Appold K. (2012), Bar-On R. (2006).

Xorijiy olimlardan Ayzenk G., B.Bass, Boyd J., Boadzis R.E., Dunker K., Gilford J., Goleman D., Kempion J., Levin K., Moss F., Nutten J., T. L.Terstoun, D.Veksler, F.Zimbardo, N.N.Tolstix, M.Vertgeymer, U.Charlzvort, J.Piaje, tomonidan shaxs intellektual faoliyatining tarkib topishi hamda shakllanishiga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarda intellekt sifatlarini o‘zaro qiyoslashning miqdoriy jihatlari, shaxsning intellektual faoliyatining optimallashtirishga ta‘sirini ayrim xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Ikkinchi bob «**Talabalar intellektual faoliyati muammosini tadqiq etishning metodik jihatlari**» deb nomlangan birinchi bobi psixologiya fanida intellektual faoliyati muammosini, talaba intellektual faoliyatini tadqiq qilishning metodologik tamoyillari va intellektual faoliyati muammosini empirik o‘rganish intellektual faoliyatga ta‘sir etuvchi determinantiv faktor va ichki psixologik mexanizmi, uning gender, yosh xususiyatlari determinantlari ekanligi haqida so‘z boradi.

Shaxs intellektual faoliyati optimallashtirish kontseptsiyasini ishlab chiqishni tadqiq qilinayotgan ruhiy fenomenning butun tabiatini ontologik ajralmas funktsional komponentlardan iborat bo‘lgan murakkab tashkil topgan bir butun sifatida tushunish imkonini beradigan, K.A. Abulxanova, V.A. Barabanshikov, L.I. Antsiferova, B.F. Lomov, V.S. Merlin va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan tizimlilik tamoyiliga tayangan holda amalga oshirish zarur. D.B. Bogoyavlenskaya, intellektual faollikning individual xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, uning turlicha ifodalanganligini topdi – «reproduktivlar», «evristlar», «kreativlar», aynan «kreativlar» intellektual faoliyatning maksimal ifodalanganligiga ega. A.G. Asmolov, V.A. Ivannikov, V.A.

Petrovskiy faoliyatning vaziyat tomonidan qo'yilgan talablari bilan shartlangan faollikni uyg'otish manbalarini tadqiq qilishgan. L.S. Slavina «faollik» atamasini intellektual passivlikning antitezasi sifatida aniqlaydi. N.A. Menchinskaya intellektual faollikni bilimlarni o'zlashtirish muammosini ishlab chiqish bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. O'quvchilarning bilish faolligi yoki passivligining asosiy mezon bo'lib topshiriqni qabul qilish va bajarish (yoki bajarmaslik) xizmat qiladi. Shu sababli intellektual faollik shaxsning intellektual faoliyati, uning muvaffaqiyatliliigi bilan adashtiriladi.

1-jadvalda talabalarning intellektual faoliyatini ta'lim yo'nalishlariga bog'liq holda tadqiq etilshi natijalari berilgan.

1-jadval

Talabalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha intellektlari diagnostikasi natijalari

Intellekt turlari	Tabiiy-aniq fanlar		Gumanitar fanlar		t
	X	Δ	X	δ	
Analogiya	5,89	1,65	6,96	1,86	2,66*
Tushunchalarni muhim belgilariga ko'ra ajratish	6,08	2,01	6,16	1,92	-0,162
Vizual intellekt	30,08	2,86	28,16	3,88	1,96*
Amaliy intellekt	16,24	1,84	19,26	3,86	-8,49**
Sotsial intellekt	28,65	3,54	33,02	3,85	4,59*

* $p \leq 0.05$; ** $p \leq 0.01$.

Talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha natijalarini tahlil etilganda murakkab analogiyalar bilan bog'liq topshiriqlarni yechishda qisman farq kuzatildi. Murakkab analogiyaga ko'ra, tabiiy-aniq fanlar yo'nalish (5.89 ± 1.65) va gumanitar yo'nalish (6.96 ± 1.86) talabalari ko'rsatkichlarida tafovut kuzatildi ($p \leq 0.05$). Bu sohalardagi talabalarga xos bo'lgan bilish jarayonlaridagi farqlar bilan izohlanadi.

Tabiiy-aniq fanlar yo'nalishlar bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning vizual intellekt darajasi $30,08 \pm 2,86$ ($p \leq 0,05$), gumanitar yo'nalishdagi talabalariki esa $28,16 \pm 3,88$ ($p \leq 0,05$) ni tashkil etdi. Ushbu natijalar talabalarining vizual intellekt darajasining biroz yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Vizual intellekt vizual ma'lumotni idrok etish va sharhlash, tasvirlar va fazoviy ob'ektlarni boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Amaliy intellektni tekshirish natijalariga ko'ra, tabiiy-aniq fanlar yo'nalish talabalari $16,24 \pm 1,84$ natijani ($p \leq 0,01$), gumanitar yo'nalish talabalari esa $19,26 \pm 3,86$ natijani ($p \leq 0,01$) ko'rsatdi. Bu shuni anglatadiki, gumanitar fanlar yo'nalishi talabalari haqiqiy hayotiy vaziyatlarga moslashish va noaniqlik sharoitida muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Sotsial intellektni tekshirish natijalariga ko'ra, tabiiy-aniq fanlar yo'nalish talabalari $28,65 \pm 3,54$ natijani ($p \leq 0,05$), gumanitar yo'nalish talabalari esa $33,02 \pm 3,85$

natijani ($p \leq 0,05$) to'plashdi. Bu ularning ta'lim va kasbiy tayyorgarlik xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin.

2-jadvalda talabalarining umumiy intellekti bilan ularning analogiya, tushunchalarni muhim belgilariga ko'ra ajratish, vizual tafakkuri orasida bog'lanishlari berilgan.

2-jadval

Talabalarining barcha intellekt ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion munosabatlar

Intellekt turlari	Umumiy	Analogiya	Tushunchalar muhim belgilariga ko'ra ajratish	Vizual intellekt	Amaliy intellekt	Sotsial intellekt
Umumiy	1	0,116	0,128	0,069	-0,286**	0,394**
Analogiya		1	-0,234*	-0,132	0,068	0,284*
Tushunchalar muhim belgilariga ko'ra ajratish			1	-0,302**	-0,086	-0,142
Vizual intellekt				1	-0,158	0,169
Amaliy intellekt					1	0,198
Sotsial intellekt						1

Umumiy va amaliy intellekti o'rtasida esa teskari munosabat kuzatildi ($r = -0,286$, $p \leq 0,01$). Bu ikki turdagi intellekt o'rtasidagi zaif teskari munosabatni ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, talabalarining umumiy intellektual qobiliyatiga qaramay, yuqori umumiy intellektga ega bo'lganlar amaliy intellektda pastroq va aksincha.

Analogiya va sotsial intellekti o'rtasida esa to'g'ri munosabat kuzatildi ($r = 0,284$, $p \leq 0,05$). Analog intellekt - bu o'xshashlik va metafora orqali ma'lumotni idrok etish va qayta ishlash, turli hodisalar o'rtasidagi o'xshash aloqalarni topish qobiliyatidir.

Umumiy natijalarda kuzatilgan ikkinchi korrelyatsion bog'lanishda ham tushunchalarni muhim belgilariga ko'ra ajratishga qobiliyatlilik vizual intellekt bilan bog'lanish hosil qilgan, ammo teskari aloqaga ega ($r = -0,302$, $p \leq 0,01$). Vizual intellekt va muhim xususiyatlar asosida tushunchalarni farqlash qobiliyati o'rtasidagi teskari bog'liqlik kognitiv strategiyalar va axborotni qayta ishlash mexanizmlaridagi farqlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu natija turli xil intellekt turlarini va ularning o'zaro bog'liqligini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi, bu esa ta'limning turli sohalarida ham aniq muammolarni, ham mavhum muammolarni samarali hal qilish talaba intellektual faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi.

«Talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirish imkoniyatlari» nomli uchinchi bobda shaxs intellektual faoliyatini optimallashtirishning tavsiflovchi yetakchi psixologik determinantlar tahlili amalga oshirildi.

Tabiiy-aniiq fanlar yo'nalishi talabalarining umumiy intellekt komponentlari bilan individualliklari o'rtasidagi dinamik xususiyatlarining intellektual faollik ko'rsatkichlarida ko'proq bog'lanishlar aks etdi. Bundan ko'rinadiki, tabiiy-aniiq fanlar yo'nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishning umumiy intellekt

komponentlari bilan individualliklari o'rtasidagi dinamik xususiyatlari intellekt sohasidagi tezlik, plastiklik, erglikning o'zaro aloqalarini o'z ichiga oladi.

Talabalar umumiy intellektning «Anologiya» komponenti bo'yicha individualliklarining dinamik xususiyatlari intellekt sohasidagi tezlik ($r=0,327$; $p\leq 0,01$), plastiklik ($r=0,273$; $p\leq 0,05$) va erglik ($r=0,247$; $p\leq 0,05$) jihatlari bilan ijobiy munosabatni aks ettira olgan.

3-jadval.

Tabiiy-aniq fanlar yo'nalishi talabalari intellektual faoliyatini optimallashtirishning ichki determinantlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish (Pirson mezon, $n=203$)

Umumiy intellekt Individuallikning dinamik xususiyatlari	O'zaro aloqadorlikni	Analogiya	Ro'y berayotgan o'zgarishlarni	Klassifikatsiya lash va guruhlar	Tarkibiy elementlarga	IQ
Intellektual faollik						
Intellekt sohasidagi tezlik	0,213	0,327**	0,241	0,210	0,060	0,123
Intellekt sohasidagi plastiklik	0,273*	0,273*	0,187	0,144	0,028	0,291*
Intellekt sohasidagi erglik	0,095	0,247*	0,156	0,280*	0,209	0,289*
Intellekt sohasidagi emotsionallik	0,137	-0,076	-0,005	0,029	0,128	-0,080
Psixomotor faollik						
Psixomotor sohasidagi tezlik	-0,013	0,284*	0,024	-0,068	-0,059	0,391**
Psixomotor sohasidagi erglik	0,101	0,194	0,312*	0,125	-0,207	0,159
Psixomotor sohasidagi plastiklik	0,130	0,286*	0,160	0,078	0,074	0,290*
Psixomotor sohasidagi emotsionallik	0,078	-0,086	-0,063	0,058	0,090	-0,020
Kommunikativ faollik						
Kommunikativ sohasidagi tezlik	0,053	0,173	0,269*	0,094	-0,023	0,068
Kommunikativ sohasidagi plastiklik	0,043	-0,023	0,115	0,110	-0,039	0,289*
Kommunikativ sohasidagi erglik	0,047	0,100	0,047	0,047	-0,038	0,086
Kommunikativ sohasidagi emotsionallik	-0,054	-0,029	0,052	-0,052	-0,108	0,059

Izoh: $p\leq 0,05$; $p\leq 0,01$

Tabiiy-aniq fanlar yo'nalishi talabalari individualliklarining dinamik xususiyatlari bilan intellekt sohasidagi plastiklik bo'yicha umumiy intellektning o'zaro aloqadorligini topish va analogiya ($r=0,273$; $p\leq 0,05$) komponentlari bir xil miqdorda ijobiy munosabatni aks ettirgan, ammo IQ ($r=0,291$; $p\leq 0,05$) ham ijobiy munosabatni tashlik etdi.

Tabiiy-aniq fanlar yo'nalishi talabalari individualligining dinamik xususiyatlari intellekt sohasidagi plastiklik jabhalari umumiy intellektning «IQ ($r=0,291$; $p\leq 0,05$)» va intellekt sohasidagi erglik «IQ ($r=0,289$; $p\leq 0,05$)» komponentlari ijobiy munosabatni aks ettirdi. Bu IQ ko'rsatkichlari bilan plastiklik va erglik kabi xususiyatlar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ushbu dinamik xususiyatlarning rivojlanishi tabiiy-aniq fan yo'nalishi talabalarining intellektual faoliyati samaradorligini sezilarli

darajada oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Psixomotor sohasidagi tezlik va plastiklik bilan umumiy intellektning analogiya komponenti ijobiy korrelyatsiya hosil qildi. Ya'ni umumiy intellektning analogiya komponenti psixomotor sohasidagi tezlik ($r=0,284$; $p\leq 0,05$) va plastiklik ($r=0,286$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy munosabatni hosil qildi.

4-jadval.

Tabiiy-aniq fanlar yo'nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishni shartlovchi ichki psixologik determinantlari

Jihatlar	Faktorlar							
	1	2	3	4	5	6	7	8
Intellekt sohasidagi tezlik	0,698							
Psixomotor sohasidagi tezlik	0,653							
Kommunikativ sohasidagi tezlik	0,628							
Psixomotor sohasidagi erglik	0,616							
Psixomotor sohasidagi plastiklik	0,532							
Kommunikativ sohasidagi erglik	0,531							
Intellekt sohasidagi plastiklik	0,508							
Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash		0,627						
O'zaro aloqadorlikni topish		0,593						
Intellekt sohasidagi emotsionallik		0,586						
Kommunikativ sohasidagi emotsionallik		0,565						
Psixomotor sohasidagi emotsionallik		0,524						
Analogiya		0,506						
Kommunikativ sohasidagi plastiklik			0,621					
Klassifikatsiyalash va guruhlash			-0,534					
O'z o'zini baholash				0,518				
Ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash				0,437				
Ustuvor qadriyatlar					0,684			
Ta'lim berish stili					0,635			
Ijtimoiy ko'nikmalar					0,582			
Ruhiy hissiy holat						0,629		
Ijtimoiy xabardorlik						0,564		
Intellekt sohasidagi erglik							-0,560	
Tarkibiy elementlarga ajratish								0,538

Keltirilgan jadvalda ayrim jihatlar o'rtasida bog'lanish hosil bo'lmaganligi sababli qayd qilinmadi. Faktorli tahlilda 24 ta komponentlar o'rtasidagi yuqori vaznli koeffitsientlar ajratib olindi va 8 ta faktor hosil qildi. Birinchi faktorda 7 ta yuqori vazni

koefitsientlar jabhalar mujassamlashgan. Bu yerda ular asosan individuallikning dinamik xususiyatlaridan tashkil topgan (4-jadvalga qarang).

Bundan ko‘rinadiki, tabiiy-aniq fanlar yo‘nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirish uchun «Kognitiv-psixomotor faollik», «Intellektual faoliyatda emotsionallik», «Kommunikativ plastiklik», «Ijtimoiy kognitiv moslashuvchanlik», «Talabaning motivatsiyasi va rivojlanishi», «Emotsional-ijtimoiy xabardorlik», «Intellektual barqarorlik», «Analitik fikrlash» kabi omillar shartlovchi ichki psixologik determinantlar hisoblanadi. Bu omillarning barchasi ushbu tadqiqot ishining muhim hal qiluvchi omillari hisoblanadi, chunki ular muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga hissa qo‘shadigan kognitiv, hissiy, ijtimoiy va motivatsion jarayonlarning samarali o‘zaro ta‘sirini ta‘minlaydi.

5-jadvalda gumanitar fanlar yo‘nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishning ichki determinantlari keltirilgan.

Gumanitar fanlar yo‘nalishi talabalari umumiy intellektning «Analogiya» komponenti individuallikning dinamik xususiyatlarini intellekt sohasidagi tezlik ($r=0,284$; $p \leq 0,05$) va erglik ($r=0,268$; $p \leq 0,05$) jihatlari bilan ijobiy munosabatni aks ettira olgan.

5-jadval

Gumanitar fanlar yo‘nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishning ichki determinantlari o‘rtasidagi korrelyatsiya (Pirson mezoni, $n=272$)

Individuallikning dinamik xususiyatlari	O‘zaro aloqadorlikni topish	Analogiya	Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni	Klassifikatsiyalash va guruhlar	Tarkibiy elementlarga ajratish	IQ
Intellektual faollik						
Intellekt sohasidagi tezlik	0,124	0,284*	0,266*	0,115	0,090	0,106
Intellekt sohasidagi plastiklik	0,247*	0,169	0,106	0,110	0,018	0,269*
Intellekt sohasidagi erglik	0,089	0,268*	0,125	0,267*	0,115	0,278*
Intellekt sohasidagi emotsionallik	0,128	-0,059	-0,010	0,032	0,112	-0,089
Psixomotor faollik						
Psixomotor sohasidagi tezlik	0,129	0,125	0,249*	-0,072	-0,047	0,316*
Psixomotor sohasidagi erglik	0,108	0,175	0,171	0,133	-0,127	0,166
Psixomotor sohasidagi plastiklik	0,122	0,145	0,128	0,089	0,065	0,288*
Psixomotor sohasidagi emotsionallik	0,026	-0,069	-0,098	0,066	0,049	-0,032
Kommunikativ faollik						
Kommunikativ sohasidagi tezlik	0,068	0,169	0,272*	0,058	-0,035	0,268*
Kommunikativ sohasidagi plastiklik	0,065	-0,045	0,143	0,259*	-0,044	0,098
Kommunikativ sohasidagi erglik	0,047	0,101	0,065	0,035	-0,087	0,034
Kommunikativ sohasidagi emotsionallik	-0,064	-0,033	0,079	-0,069	-0,112	0,099

Izoh: $p \leq 0,05$; $p \leq 0,01$

Umumiy intellektning «Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni anglash» komponenti esa, individuallikning dinamik xususiyatlarini intellekt sohasidagi tezlik ($r=0,266$; $p\leq 0,05$), psixomotor sohasidagi tezlik ($r=0,249$; $p\leq 0,05$), kommunikativ sohasidagi tezlik ($r=0,272$; $p\leq 0,05$) bilan yuqori ahamiyatli aloqalar mavjudligini ko‘rsatdi. Umumiy intellektning «Klassifikatsiyalash va guruhlar» komponenti individuallikning dinamik xususiyatlarini intellekt sohasidagi erglik ($r=0,267$; $p\leq 0,05$), kommunikativ sohasidagi plastiklik ($r=0,259$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy munosabatga ega. Demak, umumiy intellektning «analogiya» komponenti va individuallikning tezlik (intellekt sohasida) va erglik kabi dinamik xususiyatlari o‘rtasida ijobiy munosabat aniqlandi.

6-jadval.

Gumanitar fanlar yo‘nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirishni shartlovchi ichki psixologik determinantlar

Jihatlar	Faktorlar					
	1	2	3	4	5	6
Kommunikativ sohasidagi erglik	0,695					
Kommunikativ sohasidagi tezlik	0,653					
Psixomotor sohasidagi tezlik	0,628					
Intellekt sohasidagi plastiklik	0,621					
Intellekt sohasidagi tezlik	0,543					
Psixomotor sohasidagi plastiklik	0,528					
O‘zaro aloqadorlikni topish		0,802				
Ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni anglash		0,761				
Analogiya		0,750				
Klassifikatsiyalash va guruhlar		0,690				
Kommunikativ sohasidagi emotsionallik		0,490				
Ijtimoiy xabardorlik			0,566			
Psixomotor sohasidagi emotsionallik			0,509			
Kommunikativ sohasidagi plastiklik			0,490			
Intellekt sohasidagi emotsionallik			0,439			
Ijtimoiy ko‘nikmalar				0,770		
Ta‘lim berish stili				0,618		
Ustuvor qadriyatlar				0,569		
Ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash				0,468		
Intellekt sohasidagi plastiklik					0,571	
Intellekt sohasidagi erglik					0,415	
Ruhiy hissiy holat					0,409	
IQ						0,558
Tarkibiy elementlarga ajratish						0,412

IQ ko'rsatkichlari esa, individuallikning dinamik xususiyatlarining intellekt sohasidagi plastiklik ($r=0,269$; $p\leq 0,05$) va erglik ($r=0,278$; $p\leq 0,05$), psixomotor sohasidagi tezlik ($r=0,316$; $p\leq 0,05$) va plastiklik ($r=0,288$; $p\leq 0,05$), kommunikativ sohasidagi tezlik ($r=0,268$; $p\leq 0,05$) kabi yuqori yuklamali munosabat hosil qilgan.

Gumanitar fanlar yo'nalishi talabalari faktorli tahlil tabiiy-aniq fanlar yo'nalishi talabalardan farqli ravishda o'ziga xos intellektual faoliyatlarini optimallashtirishni shartlovchi umumiy intellekt bilan individuallikning dinamik xususiyatlarini tavsiflovchi *oltita* faktor (determinant)lar aniqlandi, natijalar 6-jadvalda berilgan.

Gumanitar fanlar yo'nalishi talabalarining intellektual faoliyatini optimallashtirish uchun «kognitiv-psixomotor samaradorlik», «kognitiv-ijtimoiy moslashuvchanlik», «intellektual-kommunikativ moslashuvchanlik», «ijtimoiy-madaniy kompetensiya», «intellektual-emotsional plastiklik», «kognitiv tuzilma» kabi faktorlar shartlovchi psixologik determinantlar hisoblanar ekan.

Shakllantiruvchi eksperiment bosqichida eksperiment va nazorat guruhlarini tekshiriluvchilarining natijalarini umumiy qiyosiy, guruhning xususiy holatlari hamda aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar bosqichlari ko'rsatkichlari tahlili qilingan.


7-jadval.

Eksperiment guruhi talabalarining tajriba-sinov bosqichlari bo'yicha natijalari (Styudentning t-mezoni asosida)

Intellekt turlari	Mezonlar	Tajriba-sinov bosqichlari	x	δ	t
UMUMIY INTELEKT	O'zaro aloqadorlikni topish	Nazorat guruhi	10,08	0,95	2,830**
		Tajriba guruhi	11,68	1,08	
	Analogiy	Nazorat guruhi	8,86	1,15	-2,699**
		Tajriba guruhi	10,96	1,63	
	Ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash	Nazorat guruhi	6,96	1,85	2,412*
		Tajriba guruhi	8,09	1,74	
	Klassifikatsiyalash va guruhlash	Nazorat guruhi	8,89	1,96	-2,785*
		Tajriba guruhi	9,14	1,84	
	Tarkibiy elementlarga ajratish	Nazorat guruhi	4,96	2,56	-3,675**
		Tajriba guruhi	6,54	2,69	
SOTSIAL INTELEKT	Ijtimoiy ko'nikmalar	Nazorat guruhi	26,72	4,96	-3,784**
		Tajriba guruhi	28,16	5,84	
	Ijtimoiy xabardorlik	Nazorat guruhi	24,89	4,59	4,658**
		Tajriba guruhi	26,12	6,13	
	Ijtimoiy ma'lumotlarni qayta ishlash	Nazorat guruhi	27,89	6,86	3,565**
		Tajriba guruhi	29,96	6,31	

Izoh: *- $p\leq 0,05$; **- $p\leq 0,01$

7-jadvalda eksperiment guruhining intellektual faolligini optimallashtirish mezonlari bo'yicha shakllantiruvchi va nazorat bosqichlaridagi natijalarining umumiy holati berilgan.



1-rasm: Talabalar intellektual faolivatini optimallashtirishning ta'limiy modeli

